

O‘ZBEK KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA MUSIQALI DRAMA JANRI

Maxmudjonova Mushtariy

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi

2-bosqich magistr talabasi.

Ilmiy rahbar: M.B. Akmaljanova

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida musiqali drama janrining shakillanish va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek kompozitorlari ijodida musiqali janrining takomillashuvi haqida ham fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: musiqali drama, teatr, sahna asari, repertuar, maqom

ЖАНР МУЗЫКАЛЬНОЙ ДРАМЫ В УЗБЕКСКОМ КОМПОЗИТОРСКОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация: В данной статье формирование и этапы развития жанра музыкальной драмы в узбекском композиторском творчестве анализируются с научно-теоретической точки зрения. В статье также приводятся рассуждения о совершенствовании жанра музыкальной драмы в творчестве узбекских композиторов.

Ключевые слова: музыкальная драма, театр, сценическое произведение, репертуар, маком.

THE GENRE OF MUSICAL DRAMA IN UZBEK COMPOSITIONAL CREATIVITY

Abstract: This article analyzes the formation and stages of development of the musical drama genre in Uzbek compositional творчество from a scientific and theoretical perspective. The article also presents considerations on the development and refinement of the musical drama genre in the works of Uzbek composers

Keywords: musical drama, theater, stage work, repertoire, maqom.

O‘zbek musiqa san’ati ko‘p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib , unda xalq og‘zaki ijodi , maqom an‘analari va zamonaviy kompozitorlik maktabi o‘zaro uyg‘unlashib rivoj topgan. Shu jarayonda musiqali drama janri alohida o‘rin egallaydi.

Musiqali drama – musiqa ham so‘z san’atiga asoslangan sahna asari bo‘lib u o‘zidan musiqa teatr janrining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi Musiqali drama janrining asosiy xususiyatlaridan biri – musiqa va voqealarning uzviy birligidir. Uning

ilk namunalari V asr Hindistonda shakillangan bo‘lsa, XII-asrda Xitoyda, XX asr boshlarida -Ozarbayjonda , O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda 1920-yillarda vujudga kelgan bo‘lsa , O‘zbekiston hududida musiqali drama janrining vujudga kelish davri 1910-1920- yillarda tog‘ri keladi. Musiqali drama san‘ati sahna voqealari qahramonlarning ichki kechinma va holatlari, munosabatlari so‘z , musiqa , turli dramatik harakatlar, shuningdek, raqs orqali ifodalanadi. So‘z va musiqa bir-birini to‘ldirib , asar mazmun mohiyatini ochib beradi.

O‘zbekistonda musiqali teatr san‘atining shakillanishida shoir, bastakor, dramaturg, ma‘rifatchi, teatr tashkilotchisi Hamza Hakimzoda Niyoziyning o‘rni beqiyosdir. Hamza Hakimzoda Niyoziyning musiqali dramaga qo‘shgan hissasi, avvalo, xalq og‘zaki ijodi, milliy kuy va qo‘shiq-lari sahna asarlari bilan uyg‘unlashtirishda ko‘rinadi.

O‘zbek musiqali drama o‘z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Ming yillar davomida O‘rta Osiyoda “Xalq teatrining ” turli shakillari rivojlanib keldi.

20-40 yillarda drama, opera,balet, musiqali drama va komediya janrlari bunyodga keldi va milliy “musiqali drama va komediya ” teatri ham ravnaq topishni boshladi. O‘zbek musiqali drama va komediya janrlarida ijod qiluvchi milliy kompozitorlarning mustaqil maktabi shakillandi. 50- yillardan boshlab musiqiy va adabiy hayotimizga birin-ketin istedodli va malaqali yosh milliy kompozitorlar , yozuvchi, dramaturglar , dirijyorlar, rejissyorlar, baletmeysterlar, rassomlar, aktyorlar, xonandalar va boshqa teatr mutahassis-lari kirib keldilar. 20- 40 yillarda bunyodga kelgan sahna asarlarining musiqalarini rus kompozitorlar hamkorligida yaratgan bo‘lsalar. 50-90 yillarga kelib kompozitorlar mustaqil ravishda asarlarini yaratib, o‘z teatr repertuarlarini yanada boyitdilar. Aynan ushbu yillarda respublikamizda urushdan avval va keying yillarda musiqiy teatrlarga o‘zbek xalq cholg‘ularining o‘rniga simfonik orkestr kiritildi, buni natijasida rus kompozitorlari bilan bo‘lgan hamkorlik yanada mustahkamlandi. O‘zbek bastakorlari klassik maqom, mumtoz ashula, yalla, qo‘shiq va o‘zlari bastalagan asarlarini teatr repertuarlari uchun tanlab berishdi. Kompozitorlar esa uni garmoniyalashtirib simfonik orkestr uchun mos repurtuar qilib tayorlab berishdi. Bu metod xozirgi vaqtgacha davom etib kelmoqda.

O‘zbek kompozitorlar ijodi musiqali drama janrining shakillanishi va rivijlanishida Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Manas Leviyev kabi kompozitorlar o‘z ijodlari bilan ushbu janrni yanada yoritdilar. Ushbu kompozitorlarning asarlarida milliy ohanglar, xalq kuky-qo‘shiq-lari zamonaiy kompozitorli uslublari bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos sahna asarlarini yaratishga xizmat qiladi. Musiqali dramalarda milliylik masalasi ushbu kunlarda alohida ahamiyatga ega.

O‘zbek musiqiy teatrida tarixida birinchi marotaba mustaqil ravishda kompozitor Manas Leviyev “Oltin ko‘l” nomli musiqali drama- komediya partiturasini yaratdi .

Ushbu asarning premyerasi “Muqumiy nomidagi davlat musiqiy teatrida ” ilk bor namoyon qilindi. “Jon qizlar ”, “Fotima va Zuxra ”, “Vatan ishq ”, “Ajab savdolar”, “O‘jarlar”, “Momo yer ”, “Yusuf va Zulayxo”, kabi bir necha musiqali dramalar yaratildi

Teatr sahnasida namoyish etiladigan har bir sahna asarining tomoshabin ko‘nglidan joy olishida nafaqat dramaturg, musiqa muallifi yoki rejissyor mehnati, balki aktyor- xonandlarning iqtidori ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyorning mahoratidan kelib chiqib musiqa dramasiga baho beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki musiqali drama janri keying bosqichlarda o‘zbek kompozitorlari tomonidan takomillashtirilib, xalq musiqasi va kompozitorlik uslublarining sintezi natijasida yangi badiiy bosqichga ko‘tarildi. Musiqali drama janri kompozitorlik ijodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib milliy musiqa va teatr san‘atining rivojlanishida shuningdek, zamonaviy sahna madaniyatining shakillanishida muhim ilmiy–amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zaynab Xudoyorova Musiqali drama janr sifatida// teatr jurnali 2020 yil
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova “O‘zbek musiqasi tarixi” 2018
3. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida T 2000
4. Azatov S.E O‘zbek musiqali drama rivojlanish bosqichlari hamda durdona asarlari // Modern science and research jurnali
5. Wikipediya ma‘lumotlari
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “M ” harfi